




MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC

SOLUTIONS

SHARQ VA G'ARB ADABIYOTIDA SENTIMENTALIZM

Aliqulova Dildora Bakir qizi*Ilmiy rahbar: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori**Turon universiteti v.b dotsenti***Abdullayeva Gavhar Alisher qizi***Turon universiteti talabasi**gavhar.alisherovna@mail.ru*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sharq va G'arb adabiyoti asarlaridagi sentimentalizm va hissiyotlar, ikkala adabiyot asarlarida yaratilgan qahramonlarning ichki kechinmalari va hissiyotlari muhim rol egallaydi. O'zbek va G'arb adabiyotlarining o'ziga xos stilistik va madaniy jihatlari taqqoslandi. Asarlar mualliflari yaratgan qahramonlarining his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari, istiroblari va shu bilan bir qatorda, asarni yaratgan muallifning ham hayot tarzi, makon va zamon holati va unga ta'sir qilgan omillar haqida tahlil qilindi.

O'zbek adabiyotida ma'nnaviy va diniy mavzular asosida, G'arb adabiyotida esa, romantizm va sentimentalizmning o'zaro bog'liqliklari, bundan tashqari realism haqida ham yoritib berildi.

Sentimental asarlar yaratish, ularni oddiy so'zlar orqali jonlantirish, hayot tarzidagi qiyinchiliklarni yoritib berish, inson ongidagi tasavvurlarni, hissiyotlarni mukammal ammo, sodda talqinda yetkazib berish, ramziy ma'nolar orqali abadiy sevgini talqin qilish, asarni har jihatdan to'liq, tushunarli tarzda ochib berish va eng asosiysi his-tuyg'uga alohida urg'u bergen holda kitobxonga hissiyotlar orqali ta'sir ko'rsatish faoliyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Sentimentalizm, romantizm, realism, madaniy kontekst, uslub, ramziy tasvirlar, ruhiyat, simvolizm, emotsiya, konflikt, motiv, estetika

Abstract. This article examines the role of sentimentalism and emotions in Eastern and Western literary works, the inner experiences and feelings of the characters created in both literary works. The specific stylistic and cultural aspects of Uzbek and Western literature are compared. The feelings, inner experiences, and suffering of the characters created by the authors of the works, as well as the lifestyle, space and time of the author who created the work, and the factors that influenced it, are analyzed.

In Uzbek literature, it was based on spiritual and religious themes, while in Western literature, it was about the interrelationships of romanticism and sentimentalism, as well as realism.

The work discussed was about creating sentimental works, bringing them to life through simple words, illuminating the difficulties of life, conveying the imagination and emotions in the human mind in a perfect but simple interpretation, interpreting eternal love through symbolic meanings, revealing the work in a complete, whole,



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

understandable way in an unusual, truthful, realistic way, and most importantly, influencing the reader through emotions, with special emphasis on emotion.

Keywords. *Sentimentalism, romanticism, realism, cultural context, style, symbolic images, psyche, symbolism, emotion, conflict, motif, aesthetics*

Аннотация. В этой статье рассматриваются сентиментализм и эмоции в произведениях восточной и западной литературы, где внутренние переживания и эмоции героев играют важную роль. Сравниваются стилистические и культурные особенности узбекской и западной литературы. Анализируются чувства, внутренние переживания, страдания героев, а также стиль жизни, пространство и время, в которых творец произведения жил, и факторы, оказавшие на него влияние.

В узбекской литературе основное внимание уделяется духовным и религиозным темам, в то время как в западной литературе рассматриваются взаимосвязи романтизма и сентиментализма, а также реализму.

Создание сентиментальных произведений, их оживление с помощью простых слов, освещение жизненных трудностей, передача представлений и эмоций человеческого разума в совершенной, но простой интерпретации, толкование вечной любви через символические значения, полное раскрытие произведения с разных сторон, необычное, правдоподобное и реальное изложение, а главное, акцент на эмоциях и воздействие на читателя через чувства, являются основными аспектами рассмотренной темы.

Ключевые слова: сентиментализм, романтизм, реализм, культурный контекст, стиль, символические образы, психология, символизм, эмоции, конфликт, мотив, эстетика.

KIRISH

Adabiyot inson qalbining eng nozik va chuqur his-tuyg‘ularini aks ettirish vositasidir. Turli davr va mintaqalarda inson kechinmalari, muhabbat, vafo, dard va quvonch kabi hissiyotlar turlicha ifodalangan. XVIII asrda G‘arb adabiyotida shakllangan sentimentalizm oqimi aynan inson qalbi va hissiyotlarini tasvirlashga urg‘u berib, adabiyotning yangi bosqichiga yo‘l ochdi. Biroq bu oqim faqat G‘arb adabiyotiga xos emas, balki Sharq adabiyotida ham o‘ziga xos shaklda namoyon bo‘lgan. Sharq mumtoz adabiyotida insoniy kechinmalar tasavvuf va falsafa bilan uyg‘unlashgan holda ifodalangan bo‘lsa, G‘arbda sentimentalizm asosan shaxsiy ichki dunyo va tabiiy tuyg‘ularni tasvirlash bilan ajralib turadi.

Sharq va G‘arb adabiyotidagi sentimentalizmni qiyosiy o‘rganish adabiy oqimlarning o‘zaro bog‘liqligini va ularning inson ruhiyatini qanday tasvirlaganini tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu maqolada Sharq va G‘arb sentimentalizmining asosiy xususiyatlari, yetuk vakillari hamda adabiyot rivojiga ta’siri ko‘rib chiqiladi.

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Ajib hislar ila, sentimental asarlarni tahlil qilar ekanmiz Abduqayum Yo'ldoshev tomonidan yaratilgan "Sunbulaning ilk shanbasi" qissasi o'zbek adabiyotining sentimentalizm yo'nalishidagi asarlaridan biridir. Ushbu asar o'z qahramonining ruhiy holatini, ichki kechinmalarini, va abadiy muhabbatni yoritishda o'ziga xos san'at uslubini namoyish etadi. Ushbu qissada aks etgan hissiyotlar, o'zbek madaniyatining boy ruhiy va ma'naviy merosi bilan bir qatorda, G'arb madaniyatidagi romantik elementlar va sentimentalistik yondashuvlar bilan ham uyg'unlik hosil etadi. G'arb adabiyotida ham, ayniqsa romantizm janrida, inson ruhiyati va hissiyotlarini chuqur tahlil qilishga e'tibor berilgan. G'arb adabiyoti, ayniqsa romantizm va sentimentalizm yo'nalishidagi asarlarda, qahramonlarning ichki dunyosiga katta urg'u beradi. Misol uchun, Samuel Richardson, Jeyn Ostin, Gyote va Shekspir kabi yozuvchilar asarlarida insonning ichki kechinmalari, sevgi, va ijtimoiy konfliktlarni ko'rsatadi. Bu asarlar orqali o'quvchilar qahramonlarning hayotidagi murakkabliklarni va ruhiy izlanishlarni chuqurroq tushunadilar. "Sunbulaning ilk shanbasi" qissasida esa, qahramonning o'z-o'zi bilan bo'lgan muloqoti, ichki kurashlari va aqliy izlanishlari tasvirlanadi, bu xususiyat G'arb adabiyotidagi asarlarga ham xosdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbek adabiyotida Abduqayum Yo'ldoshev (28-fevral 1962, Samarqand viloyati Qo'shrabot tumanida tavallud topgan) tomonidan yaratilgan sentimental asar "Sunbulaning ilk shanbasi" qissasi (1992-yil) ishq muhabbat mavzuga oidligi, asardagi qahramonning ichki kechinmalari, o'ylari, mas'uliyatliligi, atrofdagi insonlarga va qahramonga nisbatan aytiladigan "Jinni ekan-ku bu!" [3;259] degan gaplarga parvo qilmasligi va shu bilan birga uning yolg'iz azoblarda qolganligi, o'z dardini xech kimga aytmay, aytishni ham xohlamay o'z ich etini yegani, qahramonning shifoxonaga tushib, axvoli og'irlashgan vaqt shifokorning "Biroq bemor tanasining ko'plab ichki izvlari ilvirab qolgan ekan, ayniqsa yuragi" [3;296] degan misralari kitobxonni bevosita yuragini o'rtaydi, ichki tuyg'ularini jo'mbushga keltiradi. Bu esa muallifning his-tuyg'ularni mukammal ifodalashdagi - so'z san'atidir.

G'arb adabiyotida romantizm va sentimentalizm jiddiy muhokama qilinadigan mavzulardandir. Romantizm metodi to'g'risida D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyevaning "Adabiyotshunoslik lug'ati" da "Romantizm (fr. Romantique, ingl. Romantic) – Yevropa adabiyotida XVIII asr oxiri – XIX asrning birinchi yarmida yetakchilik qilgan adabiy """. Darhaqiqat, romantizm yo'nalishi yaratgan badiiy olamni g'ayritabiiy, ajabtovur, fantastik so'zlar bilan nomlashga yetarli asos bor edi. [1;269] Masalan, Romeo va Juliet (1595- yil. Uilyam Shekspir) kabi klassik asarlar orqali abadiy muhabbat, inson kechinmalari va ijtimoiy inqirozlar tasvirlanadi. Shuningdek, qahramonlarning psixologik portretlari, o'zaro tafovutli ichki his-tuyg'ulari ham ko'rsatiladi. Bu yondashuv, asarga chuqur ma'naviy va ruhiy tahlil olib keladi, shuningdek, o'quvchiga insoniyatning murakkab ichki dunyosini anglashga yordam beradi.

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Sharq va g'arb adabiyotidagi badiiy asarlarida ramziy unsurlar va simvolik tasvirlar muhim ahamiyatga ega. "Sunbulaning ilk shanbasi" qissasida ramziy ifodalar orqali qahramonlarning ruhiy kechinmalari va abadiy muhabbat mavzusi chuqurroq yoritiladi. Masalan, asarda muallif hissiyotlarga boy metaforalar va tasvirlar va abadiylik motivlarini ta'kidlaydi. Ramziy unsurlar haqida F.Nizomov o'zining « Sunbulaning ilk shanbasi qissasida ramziy tasvir » maqolasida to'liqligicha ma'lumot bergen. Jan Osten, Shekspir va Gyote kabi yozuvchilar o'z asarlarida bunday ramzlarni keng qo 'llashgan.

Abadiy muhabbat konsepsiysi "Sunbulaning ilk shanbasi" qissasida sevgi va sadoqatni ifodalovchi asosiy mavzudir. G'arb adabiyotida ham sevgi, ayniqsa abadiy yoki ideal muhabbat, tez-tez uchraydigan mavzudir. Shekspirning "Romeo va Juliet" asarida yoki romantik adabiy asarlarda bunday mavzu keng tarqagan. Bu asarlar har ikki madaniyatda ham inson hayotining eng murakkab his-tuyg'ularini yoritishga intiladi. Yana shuni ta 'kidlash joizki, bunday asarlarda muallif qahramonlarning o'z-o'ziga muloqoti va ichki kechinmalariga urg'u beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sentimentalizm yo'nalishida Sharq adabiyoti ichki kechinmalar, ruhiy portret va hissiyotlarga urg'u bersa, G'arb adabiyoti esa qahramonlarning ichki dunyosi, romantik kechinmalar va hissiyotlarga yug'rildi.

Ramziy tasvir – Sharqda metaforalar va ramziy ifodalar orqali abadiy muhabbatni yoritsa, G'arbda: simvolizm, ramzlar va allegoriyalar orqali insoniyat mavzulani ochib beradi.

Madaniy Kontekst – Sharqda, Sharq madaniyati, diniy va ma 'naviy qadriyatlar e 'tibor qaratса, G 'arbda, Yevropa madaniyati va romantik adabiy an'analarga qaratiladi.

Uslug va janr – Sharqda, qissa janridan foydalanilsa, G 'arbda: roman, she 'riyat va tragediya, psixologik tahlildan foydalaniladi.

Qahramon psixologiyasi – Sharqda, nisbatan soddarоq, lekin chuqur ma 'naviy izlanish orqali qahramon ifodalansa, G'arbda, murakkab psixologik konfliktlar va ichki muloqat orqali ifodalanadi.

Ikkala adabiyotda ham insoniyat hayotining asosi sifatida muhabbat va hayotdagи murakkabliklar ta'kidlanadi. Sharq adabiyotida abadiy muhabbatni ideal shaklda ifodalash orqali sharq madaniyatining o'ziga xos yondashuvini namoyon etadi. Shu bilan birga, G'arb adabiyotida ham sevgi, muhabbat va insonning ichki kurashlari asosiy mavzular bo'lib, bu yondashuv o'quvchini chuqur his qilishga chorlaydi. Qissalar va romanlar orasidagi taqqoslash, ikki madaniyat o 'rtasidagi umumiyl falsafiy va ma'naviy tamoyillarni yoritishda yordam beradi. Ikkala yo'nalishda ham, asarlar insonning ichki dunyosini, ruhiy izlanishlar va hayotiy tortishuvlarni aks ettiradi. Bu tahlil asosan adabiyotshunoslikning universal prinsiplarini, ya'ni insoniy tajriba va uning madaniyatga ta'sirini ko 'rsatadi.

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Zamonaviy adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan, ikki madaniyat o‘rtasidagi o‘xshashliklar va farqlarni o‘rganish, o‘z navbatida, madaniy identitet va dunyoqarashning shakllanishiga oid chuqur tahlilni talab qiladi. Shu bilan birga, asarlar orasidagi o‘zaro ta’sirni aniqlash ularni globallashgan madaniyat kontekstida baholash imkonini beradi.

XULOSA

Shuni ta’kidlash lozimki, Sharq va G‘arb adabiyoti o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, har ikkala adabiyotda inson his-tuyg‘ularining oliy darajada ifodalanishi kuzatiladi. Adabiy asarlarda bunday nafis tuyg‘ularni teran yoritish va ularni o‘quvchi yoki tinglovchiga yetkazish har bir muallifning ijodiy mahorati va badiiy salohiyatiga bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, har bir asarning yaratilish jarayonida muallifning shaxsiy dunyoqarashi, kechinmalari, hayotiy tajribalari va estetik ideallari muhim ahamiyat kasb etadi.

Sharq adabiyotida his-tuyg‘ular asosan sodda, lekin chuqur falsafiy talqinda ifodalanib, o‘quvchining ruhiy dunyosiga bevosita ta’sir ko‘rsatish usuli qo‘llaniladi. Bunda muallifning obrazlilik va ramziy ifoda vositalari orqali insoniy kechinmalarni nozik tarzda yetkazish maqsad qilinadi. G‘arb adabiyotida esa ifoda uslubi nisbatan murakkab bo‘lib, asosan tahliliy va intellektual yondashuv asosida tuzilgan. Bu esa o‘quvchini chuqur fikrlashga, mustaqil xulosa chiqarishga undaydi. Shu bois, Sharq adabiyoti ko‘proq intuitiv-emotsional ta’sir kuchiga ega bo‘lsa, G‘arb adabiyoti ratsional-mulohazakor yondashuv orqali kitobxoniga estetik zavq bag‘ishlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdulla Ulug‘ov “Adabiyotshunoslik nazariyasi”. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent 2017
2. F.Nizomov “Sunbulaning ilk shanbasi” qissasida ramziy tasvir. 2022
3. Ma’mura Qutliyeva “Eng sara muhabbat qissalari”. Toshkent. Yangi asr avlod, 2020
4. O‘zbekiston til va madaniyat. Tarjimashunoslik va qiyosiy adabiyotshunoslik. 2022
5. G‘.N.Murodov, D.S.O ‘rayeva “Adabiyotshunoslik metodologiyasi”. Darslik. Buxoro “Durdona” nashriyoti 2023
6. <https://uz.wiktionary.org>
7. <https://imlo.uz>